

IQTISODIY TARMOQLARDA MA'MURIY TA'SIRNI QISQARTIRISH NEGIZIDA BANK SEKTORINI XUSUSIYLASHTIRISH MASALALARI

O'ktamov Shahbozbek

Farg'ona politexnika instituti

Annotatsiya

Mazkur tezisda bank sektorini xususiylashtirishning huquqiy jihatlari, iqtisodiy samaradorligi hamda metodologik asoslari muhokama etiladi.

Kalit so'zlar: tijorat banklari, xususiylashtirish, inflatsiya, foiz stavkasi, raqobat, markaziy bank, kredit, bank xizmatlari.

KIRISH

Zamonaviy tadqiqotlar tijorat banklarini xususiylashtirish bozor iqtisodiyoti rivojlanishining ajralmas qismi deb hisoblaydi va mamlakat iqtisodiyotiga quyidagi imkoniyatlarni yaratadi:

- qisqa vaqt ichida budjetning daromadlarini oshirish;
- to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar oqimini jadallashtirish;
- bank tizimiga yangi texnologiyalar va ilg'or boshqaruv tizimlaridan foydalanish imkon beradi;
- raqobat muhitini yaxshilaydi;
- banklarni kapitallashtirishga ijobiy ta'sir qiladi;
- aholiga xizmat ko'rsatish sifatini oshiradi.

Bizga ma'lumki, 2020 yilning 12 may kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi bank tizimini 2020- 2025yillarda isloh qilish strategiyasi to'g'risida" gi muhim farmoni e'lon qilindi. Unda bank tizimi samaradorligini oshirish va moliya bozorida teng raqobat sharoitlarini yaratish, korporativ boshqaruvni takomillashtirish va xalqaro amaliy tajribaga ega menejerlarni jalb qilish orqali banklarni isloh qilishning muhimligi, tijorat banklarini davlat ulushidan kompleks o'zgartirish orqali banklardagi davlat ulushini kamaytirish zarurligi ta'kidlangan. Shu bois, ham bank sohasidagi hozirgi holat tahlili bank sektorida davlatning yuqori darajadagi aralashuvi, davlat ishtirokidagi banklarda menejment va tavakkalchiliklarni boshqarish sifatining yetarli emasligi,

iqtisodiyotda moliyaviy vositachilikning past darajasi kabi bank sektorini iqtisodiy yangilanishlar va jamiyat ehtiyojlariga mos ravishda rivojlantirishga to'sqinlik qilayotgan qator tizimli muammolar mavjudligini ko'rsatmoqda.

- O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2020 yil 12 may kuni imzolangan Farmonning mazmuniga ko'ra, xalqaro moliya institutlari ko'magida "Ipoteka-bank" ATIB, "O'zsanoatqurilishbank" ATB, "Asaka" ATB, AT "Aloqabank", "Qishloq qurilish bank" ATBdagi davlat ulushlarini bosqichma-bosqich xususiylashtirish nazarda tutilgan. O'zbekiston Respublikasi bank tizimi bugungi kunda bank xizmatlarining an'anaviy sohalari, kreditlash, depozit operatsiyalari, hisob-kitob va kassa kabi xizmatlarni ko'rsatuvchi 32 ta tijorat bankidan tashkil topgan. 32 ta bankdan 13 tasining kapitalida davlat ishtiroki mavjudligi, ularning kapitali bank tizimi jami kapitalining 87 foizidan ko'prog'ini, aktivlari esa umumiy aktivlarning 85 foizidan ko'prog'ini tashkil qilishi bank sektorida davlat ulushi ustuvor ekanligini ko'rsatadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL

Shuni aytish mumkinki, bankda tashkil etilgan samarali korporativ boshqaruv kichik (minoritar) aksiyadorlarning manfaatlarini himoya qilish, bank faoliyati to'g'risidagi ma'lumotlarining shaffofligi oshirish, hisobotlarning xalqaro standartlaridan foydalanish, samarali operatsion hisobot tizimi yaratish va bank obro'si oshirish kabi mexanizmlar orqali bank investitsion jozibadorligiga va aksiyalar bahosiga ijobiy ta'sir qiladi. Korporativ boshqaruv aksiyalarning investitsion jozibadorligini oshirish vositasi sifatida kapital jalb qilish muammosini hal qilishda ulkan rol o'ynaydi.

Shu o'rinda bankning xususiylashtirish jarayoni amalga oshirilgandan keyingi 5 yildagi moliyaviy va faoliyat samaradorligiko'rsatkichlarini solishtirgan holda xususiylashtirish jarayoniga baho beriy maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Xususiy sektor banklari davlat sektoridagi banklarga qaraganda ancha rivojlanganligi va yanada samarali ishlashi barchaga ma'lum. Shu sababdan xorijiy investorlar sarmoyalarni davlat banklarga emas, balki xususiy banklariga joylashtirishni afzal ko'rishadi. Bundan tashqari, davlat banklari odatda xususiy afzalliklaridan biri bu xodimlarning o'z ishiga nisbatan ma'suliyatli va jiddiy



munosabatda bo'lishlari operatsion riskni pasaytiradi va bu turdagi banklar minimal risk tushunchasiga amal qilishadi.

Fikrimizcha, mamlakat iqtisodiyotida yuz berayotgan salbiy holatlarning asosiy sababi bank sektorida yuritilayotgan bugungi kun talabiga to'laonli javob bera olmayotgan chora-tadbirlar hisoblanadi. Jumladan, davlat ishtirokidagi banklar va u orqali iqtisodiyotda yuzaga kelayotgan bir necha muammolarni ko'rib chiqamiz.

Birinchi mumammo bu- inflatsiya. Inflyatsiya nazariy jihatdan mamlakat iqtisodiyotida pul massasi ko'payib ketishi oqibatida yuzaga keladigan ko'rsatkich hisoblanadi. Pul massasi regulyatori vazifasini Markaziy bank o'taydi. Lekin tijorat banklarining haddan ziyod ko'p ajratgan imtiyozli, ya'ni pas foizli kreditlari asosida mamlakatda inflatsiya darajasi yuqoriligicha qolmoqda.

Ikkinchi mumammo bu- yuqori foiz stavkasi. Hozirgi kunda ajratilayotgan kreditlarning 60 foizi bu past foiz stavkasidagi imtiyozli kreditlar hisoblanadi va asosan tijorat banklarida ajratilayotgan kreditlarning 70 foizdan ortig'i davlat sektoriga, 29 foizi esa xususiy sektorga ajratiladi. Hukumat talabiga binoan tijorat banklari davlat dasturlarini amalga oshirish uchun yirik miqdorda imtiyozli kreditlar ajratadi. Odatda imtiyozli kreditlar budjet hisobidan subsidiyalashtirilmaganligi sababli, bank bu xarajatni kichik biznesdan yuqori foiz hisobiga undirishga urinadi. Bu urinish esa mamlakat iqtisodiyotida foizlarning yuqoriligini ta'minlashga xizmat qilmoqda. Yana bir asosiy muammolarimizdan biri bu- raqobat masalasidir. Davlat ulushiga ega bo'lgan banklarimizga e'tibor qaratadigan bo'lsak, asosan ular ma'lum bir sohalarga ixtisoslashtirilgan va bu o'z-o'zidan banklar orasida raqobatga to'squinlik qiladi.

Agar biz tijorat banklarini xususiylashtirsak, **birinchi** navbatda ular inflatsiyaning asosiy sababchisi- imtiyozli kreditlardan kam miqdorda foydalanishga xarakat qiladi va bu foiz stavkalarini pasaytiradi. **Ikkinchidan**, foiz stavkalari sog'lom raqobat sharoitida mijozlar uchun kurash jarayonida tabiiy ravishda pasayadi. Qolaversa, banklar mijozlar bozorida o'z o'rniga ega bo'lish uchun yanada sifatli, tezkor, hamda universal bank xizmatlarni ko'rsatishga va yangi xizmat turlarini joriy qilishga urinadi. Bu o'z-o'zidan bank sohasida modernizatsiya jarayonini boshlab beradi. Tanganing ikki tomoni bo'lganidek, xususiy banklar ham kamchiliklardan



holi emas. Mamlakatimizdagi banklar tarixiga nazar soladigan bo'lsak, shu kunga qadar faoliyatiga barham berilgan banklarning barchasi xususiy banklardir va ularning har biri noqonuniy operatsiyalarni amalga oshirish, mamlakat hududidan valyutalarni noqonuni ravishda chetga chiqarish faoliyati bilan shug'illangan. Demak, tijorat banklarining xususiylashtirilishi bank sohasida bir qator qonundan chetlashish holatlariga ham olib kelishi mumkin. Bundan tashqari, bilamizki har bir mijoz kredit olish jarayonida kam vaqt ichida, ortiqcha qog'ozbozliklarsiz yetarli pul mablag'iga ega bo'lishni xohlaydi. Mijozlar talabiga binoan, raqobatchilardan ortda qolmaslik uchun kreditlash jarayonidagi hujjatlarni kamaytirishga urinishadi. Bu esa bir qancha muammolarni, xususan kredit riskini maksimal darajaga ko'tarishi va hattoki bank faoliyatini jar yoqasiga yetaklab kelishi mumkin.

E'tirof etish joizki, **birinchidan**, xususiy tijorat banklari ham ba'zi kamchiliklarga ega bo'lishiga qaramasdan, uning bu kamchiliklari davlat banklarining kamchiliklaridan sezilarli darajada pastdir.

Ikkinchidan, bizga ma'lum bo'lganidek, neoklassiklar- "jamiyatni xususiylik tushunchasi harakatga keltiradi" degan g'oyani ilgari surishganidek, jamiyatda har bir shaxs o'z manfaatlari tufayli bir-birlari bilan uchrashishadi va jamiyat shu asnoda qizg'in harakatga keladi.

XULOSA VA MUNOZARA

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda fikrimizcha, mamlakat hududida yagona davlat banki mavjud bo'lishi kerak va bu ham shubhasiz, Markaziy bank sifatida e'tirof etilishi lozim. Qolgan barcha mavjud banklar xususiylashtirilishi va ular mamlakat bank sektorida mutlaqo sof raqobatga kirishishlari va buning asnosida, to'laqonli bozor mexanizmiga asoslangan iqtisodiyotni shakllantirishga imkon yaratishlari lozim deb hisoblaymiz.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Abdullaev Y., Qoraliev T., Toshmurodov Sh., Abdullaeva S. Bank ishi. O'quv qo'llanma. – T.: «IQTISOD – MOLIIYa», 2019 y. – 548 bet.
2. Abdullaeva Sh.Z. Bank risklari va kreditlash. – T.: Moliya, 2012. –304
3. Abdullaeva Sh.Z. «Bank ishi» T. TMI., 2015 y.



4. Bank V.R. Bank operatsiyalarini tashkil etish va hisobi: Darslik. qishloq - M.: 2014. - 231 s.
5. Bank ishi: Darslik / ed. IN VA. Kolesnikova, P.P. Krolivedskaya. 4-nashr – M.: Moliya va statistika, 2018. – 464 b.

